

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

RIZAYEVA MUNIXON MAXKAMOVNA

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA RIVOJLANISH
MARKAZLARINI LOYIHALASH VA METODIK TA'MINOTINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Rizayeva Munisxon Maxkamovna

Ma'ktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarini loyihalash va
metodik ta'minotini takomillashtirish..... 3

Ризаева Мунисхон Махкамовна

Совершенствование методического обеспечения проектирования
центров развития в дошкольных образовательных
организациях..... 23

Rizayeva Muniskhon Makhkamovna

Improvement of methodological support for the design of development
centers in pre-school educational organizations..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 50

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

RIZAYEVA MUNIXON MAXKAMOVNA

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA RIVOJLANISH
MARKAZLARINI LOYIHALASH VA METODIK TA'MINOTINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2023.4.PhD/Ped6888-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.mdmoi.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manziliga joylashirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayeva Nafisa Shavkatovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponenlar:

Tadjibayeva Hilola Mahmutovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Nazirova Go'zal Malikovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 -raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "11" 04 soat 16:00dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri Yakkasaroy tumani Yusuf Xos Hojib ko'chasi 64-uy. Tel.: (99871)150-01-27; faks: (99871)150-01-27; E-xat: mtm-malaka.oshirish@exat.uz)

Dissertatsiya bilan Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100011, Toshkent shahri Yakkasaroy tumani Yusuf Xos Hojib ko'chasi 64-uy. Tel.: (99871)150-01-27; faks: (99871)150-01-27; E-xat: mtm-malaka.oshirish@exat.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil " " kuni tarqatildi.

(2025 yil " " dagi " - raqamli reyestr bayonnomasi).



N.X.Raxmankulova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

Sh.E.Ne'matov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.n., dotsent

K.Dj.Riskulova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda maktabgacha ta'lim nafaqat bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, balki mustaqil ijtimoiy hayotga tayyorlashning muhim bo'g'ini sifatida e'tirof etilib, bu borada Xalqaro Ta'lim instituti (AQSH), YUNESKO Ta'lim instituti (Gamburg, Germaniya), European Integration (ECISA-Austria) kabi nufuzli tadqiqot markazlarida muhim ilmiy natijalarga erishilmoqda. Jumladan, maktabgacha ta'lim jarayoni mazmunini xalqaro dasturlarga ustuvorlik berish asosida integratsiyalash, tarbiyalanuvchilarda ijodkorlik qobiliyatini namoyon etishga imkon yaratuvchi "Men" konsepsiyasida har bir shaxsni ma'naviy boy, intellektual salohiyatli qilib tarbiyalashga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi markazlar faoliyatini innovatsion loyihalashda mashg'ulotlar mazmunini takomillashtirish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyo miqyosida maktabgacha ta'lim va tarbiya mazmunining integrativ modellarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish, pedagog-tarbiyachilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, tarbiyalanuvchilarning aqliy, estetik va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishga oid tadqiqotlar alohida ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan, maktabgacha ta'lim va tarbiyaning mazmunini intensiv takomillashtirish maqsadida rivojlantiruvchi muhitni ta'minlovchi ta'lim tamoyillariga asoslangan texnologiyalarni jarayonga tatbiq etish, tarbiyachilarda ijodkorlik va texnologik kompetentlikni oshirish zaruriyati xalqaro ahamiyatga ega bo'lib, barcha rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta'limning bosh maqsadi bolalarni hayotga tayyorlash, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatini taminlovchi bilim va konikmalar bilan qurollantirish, ijtimoiy-emotsional rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim jarayoni mazmunini tubdan isloh qilish, har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish darajasini hisobga olib, ehtiyojlarga asoslangan ta'lim va tarbiya berish, ularda ta'limning keyingi bosqichiga o'tishidagi shaxsiy sifatlari va hayotiy kompetensiyalarini, ijodiy fikrlash, tafakkur qilish qobiliyatlarini tizimli rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, "...bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'limga qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagoglarning malaka darajasini yuksaltirish" kabi muhim vazifalar belgilangan. Shu bilan birga, xalqaro andozalar integratsiyasi talablari asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv tarbiya jarayonining metodik mazmundorligini boyitish, ota-onalarning faol hamkorligiga asoslanish, davlat talablari, dasturlar, interaktiv, ijodiy, muammoli topshiriqlarga boy amaliy mashg'ulot va treninglarni joriy etish orqali tarbiyachilarning kasbiy mahoratini uzluksiz oshirib borish muhim masalalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi, 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi

maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil

22-dekabrda 802-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi¹ hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustivor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar D.A.Abduraximova, T.L.Xurvaliyeva, N.Sh.Abdullayeva, G.N.Ibragimova, G.A.Berdaliyeva, M.M.Berdiyeva, D.F.Salimova, M.A.Rasulxo'jayeva, S.S.Raximova, N.I.Rejametova, G.B.Rizayeva, X.U.Rizayeva, G.M.Nazirova, M.R.Isxakova, O.A.Maxmudova, Yu.R.Maxmutazimova, D.R.Mo'minova, N.S.Mo'minova, G.O.Najmiddinova, N.I.Ergasheva, M.N.Xushnazarova, N.S.Shaizakova va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan.

MDH olimlaridan S.L.Novoselova, V.A.Petrovskiy, V.A.Poddyakov, V.A.Yasvin va boshqa olimlarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishga oid ilmiy tadqiqot ishlari o'rganilgan va tahlil qilingan.

Xorijiy davlatlar olimlari D.S.Adams (Angliya) M.Montessori (Italiya), O.Dekroli (Belgiya), Dj.Dyui (Fransiya), Elen Key (Shvetsiya), Selestin Frenet (Fransiya) va boshqa olimlarning ishlarida maktabgacha ta'lim sohasidagi muammolar o'rganilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qo'qon davlat pedagogika instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining №PZ-20170927124 "Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasining yagona ma'lumotlar bazasi va elektron platforma yaratish" loyihasi doirasida bajarilgan (2022-2023 yy).

Tadqiqotning maqsadi maktabgacha ta'lim tashkilotlari rivojlanish markazlarida faoliyatlarini loyihalashning metodik ta'minotini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit faoliyatining hozirgi holatini tahlil qilish;

¹ "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlaridagi faoliyatlarni loyihalashni metodik ta'minlash va takomillashtirish;

rivojlanish markazlaridagi faoliyatlarni loyihalash orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy jarayonlarni tashkil qilishni shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlaridagi faoliyatlarni loyihalashning metodik ta'minotini takomillashtirish modelini ishlab chiqish;

Tadqiqotning obyekti sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlaridagi faoliyatlarni loyihalashning metodik ta'minotini tashkil qilishni takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Sirdaryo, Samarqand, Surxondaryo va Namangan viloyatlarida jami 18 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 328 nafar tarbiyachilari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlaridagi faoliyatlarni loyihalashning metodik ta'minotini takomillashtirish mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy o'rganish, tizimli tahlil, pedagogik diagnostika, so'rovnoma, intervyu, ilmiy prognoz, modellashtirish, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik va ma'lumotlarni qayta ishlash, interpretatsiya hamda korreksion tahlil kabi nazariy, empirik va kvalimetrik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlaridagi faoliyatlarni loyihalash va metodik ta'minlash uslubi (muhit – uchinchi pedagog, ko'p funksiyalilik, variativlik, qulaylik, ekologik xavfsizlik) asosida takomillashtirilgan;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlaridagi faoliyatlarni loyihalash va metodik ta'minlashni takomillashtirish individual ta'lim trayektoriyalarini qurish, boshlang'ich, oraliq, yakuniy natijadorlikni baholash komponentlarini loyihalashtirish bosqichlari (tayyorlov, texnologik, yakuniy) asosida takomillashtirilgan;

xorijiy davlatlar tajribasi asosida rivojlantiruvchi muhitni yaratishning asosiy negizlari va variativ jarayonlar asosida rivojlantiruvchi predmetli-fazoviy muhitni faollashtirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan;

maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglar, ota-onalarni ta'limga jalb etishda "Ijodkor tarbiyachi" platforma materiallari doirasida nazariy va amaliy jarayonlarda, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining maktabga tayyorgarligini, tarbiyalanuvchilarining shaxsiy qobiliyatlari, qiziqishlari, rivojlanish dinamikasi va xususiyatlarini aniqlagan holda muqobil ketma-ketlikda takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarining malakasini oshirish kursining tarbiyachi va oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi toifalariga 30 soatlik "Rivojlanish markazlarini loyihalash", 24 soatlik "Alternativ guruhlarda rivojlanish markazlarini loyihalash va metodik ta'minlash" o'quv modullari yaratilgan;

"Fan va tabiat rivojlanish markazida ta'limiy faoliyat", "Til va nutq

rivojlanish markazida ta'limiy faoliyat", "San'at rivojlanish markazida ta'limiy faoliyat", "Qurish, konstruksiyalash va matematika rivojlanish markazida ta'limiy faoliyat", "Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish rivojlanish markazida ta'limiy faoliyat", "Yozgi sog'lomlashtirish oylarida tarbiyachining ta'limiy faoliyati", "Rivojlanish markazlarini loyihalash" nomli o'quv qo'llanmalar nashr etilgan;

"Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasining yagona ma'lumotlar bazasi va elektron platforma yaratish" nomli loyihada ishtirok etilgan va "Ijodkor tarbiyachi" nomli platforma yaratilgan va amaliyotga joriy etilgan.

"Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash guruh pedagog-tarbiyachining ish hujjatlari", "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida to'liq kunlik va qisqa muddatli tayyorlov guruhlarini tashkil etish", "Tarbiyachining pedagogik faoliyatini rejalashtirish" nomli metodik tavsiyanomalar yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llangan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlaridagi faoliyatlarni loyihalash va metodik ta'minlashni takomillashtirish uslub va nazariy materiallarning rasmiy manbalardan olinganligi, tadqiqot natijalari va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik usullar vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlaridagi faoliyatlarni loyihalash va metodik ta'minlashni takomillashtirish metodikasiga yo'naltirilgan pedagogik shart-sharoitlarini aniqlanganligi; maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlaridagi faoliyatlarni loyihalash va metodik ta'minlashni takomillashtirish asosida yo'naltirilgan o'quv-metodik ta'minot (ilmiy-metodik tavsiyalar)ning mavjudligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlaridagi faoliyatlarni loyihalash va metodik ta'minlashni takomillashtirishdan o'quv reja, fan dasturlari hamda malaka talablari, darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratishda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlaridagi faoliyatlarni loyihalashning metodik ta'minotini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

maktabgacha ta'limning muqobil shakllari (oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari) tashkilotlarida rivojlanish markazlaridagi faoliyatlarni loyihalash va metodik ta'minlashning uslubi (muhit – uchinchi pedagog, ko'p funksiyalilik, variativlik, qulaylik, ekologik xavfsizlik) asosida takomillashtirilgan xulosa va takliflardan "Rivojlanish markazlarini loyihalash", "Alternativ guruhlarda rivojlanish markazlarini loyihalash va metodik ta'minlash" o'quv qo'llanmalarini yaratishda foydalanilgan (Maktabgacha ta'lim agentligining 2024-yil 4-martdagi 03-03/1-269-son ma'lumotnomasi). Natijada, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarini loyihalashga va metodik ta'minlashga erishilgan;

xorijiy davlatlar tajribasi asosida rivojlantiruvchi muhitni yaratishning asosiy tamoyillari va variativ yondashuvlar asosida rivojlantiruvchi predmetli-fazoviy muhitni faollashtirish konsepsiyasida berilgan xulosa va takliflardan

PZ-20170927124-raqamli “Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasining yagona ma’lumotlar bazasi va elektron platforma yaratish” nomli loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 9-yanvardagi 4/17-4/1-1111-son ma’lumotnomasi). Natijada, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasining yagona ma’lumotlar bazasi va elektron platforma yaratilgan;

maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlanish markazlaridagi faoliyatlarni loyihalash va metodik ta’minlashni takomillashtirish individual ta’lim trayektoriyalarini qurish, boshlang‘ich, oraliq, yakuniy natijadorlikni baholash komponentlarini loyihalashtirish bosqichlari (tayyorlov, texnologik, yakuniy) asosida berilgan xulosa va takliflardan PZ-20170927124-raqamli “Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasining yagona ma’lumotlar bazasi va elektron platforma yaratish” nomli loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 9-yanvardagi 4/17-4/1-1111-son ma’lumotnomasi). Natijada, ta’lim va tarbiya jarayonini innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etish, tarbiyachining media kompetentligini oshirishga erishilgan;

maktabgacha ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi asosida tarbiyalanuvchilarning maktabga tayyorgarligini, shaxsiy qobiliyatlari, qiziqishlari, rivojlanish dinamikasi va xususiyatlarini aniqlagan holda muqobil ketma-ketlikda takomillashtirilgan xulosa va takliflardan “Syujetli-rolli va sahnalashtirish rivojlanish markazida ta’limiy faoliyatni takomillashtirish” o‘quv qo‘llanmani yaratishda foydalanilgan (Maktabgacha ta’lim agentligining 2023-yil 27-iyuldagi 03-03/1-269-son ma’lumotnomasi). Natijada, rivojlanish markazlarida ta’limiy faoliyatlarni samarali tashkil etishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e’lon qilinishi: Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 25 ta ilmiy ish, shu jumladan, 7 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining PhD doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning matni 135 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, amalda joriy etilishi holati, ishning aprobatsiya natijalari, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi

bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanish markazlaridagi faoliyatlarni loyihalashning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonining amaliyotdagi holati o'rganilgan, erta ta'lim bosqichlari yoritilgan, rivojlanish markazlarini loyihalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari hamda rivojlantiruvchi muhitning metodik ta'minotini takomillashtirish mazmuni yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti maqsadi – maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etishdan iborat².

Mamlakatimizning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlaridan foydalanib pedagogik jarayonni tashkil etish masalasi o'ta dolzarb hisoblanib, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari hamda “Ilk qadam” davlat o'quv dasturini amalda qo'llash bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartining asosiy prinsiplari etib, tarbiyalanuvchining intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi; har bir bolaning, shu jumladan jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga bo'lgan huquqini amalga oshirish va imkoniyatining tengligi; davlat standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga mosligi; maktabgacha ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi; maktabgacha ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi; maktabgacha ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsion texnologiyalariga asoslanilganligi hamda xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan rivojlanish markazlarini hisobga olgan holda foydalanish belgilangan.

Dissertatsiya ishimizning maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni loyihalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, nazariy asoslari ilmiy ma'lumotlar, tadqiqotchi olimlarning ishlari asosida o'rganilib ilmiy tahlil qilindi.

N.SH.Abdullayevaning “Maktabgacha ta'limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish”, klasterli yondashuv asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish mexanizmi transformatsion jarayonlarda (hamkorlikka psixologik tayyorgarlik, bilimlar transferi, zahiralarni aniqlashtirish, ijtimoiy imij, kreativ tadbirkorlik) rahbar kadrlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan modulli malaka oshirish kurslarini kiritish orqali takomillashtirishga qaratilgan.³ Darhaqiqat maktabgacha ta'limning umumiy maqsadi yagona sifatli va

² Vazirlar Mahkamasining Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risidagi 802-son qarori, 2020-yil 22-dekabr

³ N.Sh.Abdullayeva, Maktabgacha ta'limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD) avtoreferati Toshkent 2019 B-10

samarali ta'limni tashkil etishdir. Tadqiqotimizning asosiy konsepsiyasi rivojlantirish markazlari faoliyatini loyihalash va metodik ta'minotini takomillashtirishni taqazo etadi. Muallif pedagoglarga davlat dasturini variativ yondashuv asosida takomillashtirishga hamda pedagogik jarayonni boshqarishda klasterli yondashuv tizimini sifat darajasiga erishishini yoritgan.

D.F.Salimovanning tadqiqot ishida syujetli-rolli o'yinlar vositasida tarbiyalanuvchilarda axloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajalarini baholash mezonlari bolalar faoliyatini tashkil etishning motivatsion, kognitiv faoliyatli, kreativ bosqichlari induktiv va deduktiv fikrlashga yo'naltirilgan maktabga tayyorlash dasturlarining reproduktiv, produktiv, kreativ daraja ko'rsatkichlari hamda gender tamoyillariga ustuvorlik berish orqali e'tibor qaratilgan. Muallifning ilmiy izlanishlaridan "Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish" rivojlanish markazidagi vazifalarni to'g'ri yoritishda foydalanish joiz.

Jan Ovidiy Dekrolining ta'kidlashicha, pedagogik faoliyat bolaning o'z "Men"ini anglashiga, o'z ideallari, maqsadlari va istaklarini amalga oshirishi kerak bo'lgan muhitni bilishiga hissa qo'shishi kerak.

Selesten Frenet rivojlanish muhiti tufayli bolaning o'zi shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish mumkinligini izohladi. Yashash muhiti bolani rivojlantirishi va tarbiyalashi kerak bo'lgan shunday muhitki, u bolani shaxs sifatida rivojlantirish uchun eng tabiiy va aloqalarni faollashtiruvchi vositachi muhit hisoblanadi.

Dissertatsiya ishida xorij olimlaridan Ellen Keyning ishlari ham tahlil qilingan. Erkin pedagogika tushunchasi va "Bolalar yashasin" iborasi shved pedagogi Ellen Key nomi bilan bog'liq. XIX asrda u haddan tashqari himoyalani, jismoniy jazo va bolalarda jamoa instinktini tarbiyalashga qarshi ekanligini, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining rivojlanish markazlarini loyihalash, unda ta'limiy jarayonni tashkil etishga bo'lgan shaxsiy ehtiyojlarini o'rganish, hozirgi amaliyot paradigmasi o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilish uchun kasbiy rivojlanish, shu jumladan individual yordam zarurligini aytgan.

Italyan pedagogi Mariya Montessori maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yinlar ixtiro qilishga katta hissa qo'shgan. Uning metodikasiga ko'ra pedagogning roli bolalarning mashg'ulligiga e'tibor berishdan iborat bo'lgan.

Pedagogik-psixologik adabiyotlarini tahlil qilish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

O'zbekiston maktabgacha ta'limini modernizatsiya qilish va isloh qilish jarayonida davlat tomonidan qo'yiladigan yangi talablar va innovatsion yondashuv asosida rivojlanish markazlari faoliyatini loyihalashning metodik ta'minotini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan;

maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi pedagogik muhitni tashkil etishga oid metodik adabiyotlar va ishlanmalar yetarli emasligi, shaxsga yo'naltirilgan va innovatsion yondashuv asosida rivojlantiruvchi pedagogik muhitni tashkil etishga oid metodikalar yetarli darajada emasligi, rivojlanish markazlarida ta'limiy faoliyatlarni olib borishda tarbiyachilarning kompetensiyasi pastligi, ko'rgazma va tarqatma materiallar, AKT vositalarining yetishmasligi aniqlandi.

Nazariy jihatdan, ushbu muammolarni o'rganish, ilmiy tadqiqot ishlarini

tahlil qilish, shaxsga yo'naltirilgan va innovatsion yondashuv asosida rivojlanish markazlarini loyihalashning metodik ta'minotini takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash, rivojlanish markazlarini loyihalashga qo'yilayotgan zamonaviy talablar tadqiqot mavzusini tanlashga asos bo'ldi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi pedagogik muhit mazmun-mohiyatiga ko'ra bolani aqliy, jismoniy va psixologik rivojlanishini ta'minlashi, takomillashtirishi, natijada mazkur muhitga qo'yilgan talab va maqsadlarni ro'yobga chiqarishi kerak. Rivojlantiruvchi pedagogik muhitni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llash uchun uning variativligini ta'minlash zarur. Bunda maktabgacha ta'lim tashkiloti joylashgan hudud, tashkilotning turi, unda olib boriladigan ta'lim mazmuni, rivojlanish markazlarida milliy va madaniy urf-odatlarini inobatga olish lozim. Bu jihatlar tashkilot guruhlarida yaratilgan rivojlantiruvchi muhitning o'ziga xosligini ta'minlaydi.


Maktabgacha ta'lim tashkilotining turiga, rivojlantiruvchi pedagogik muhitni tashkil etish shart-sharoitlariga qarab, bolalarga ta'lim-tarbiya berishning o'ziga xos, alohida, betakror, samarali usullarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin. Rivojlantiruvchi pedagogik muhitda foydalaniladigan o'yinchoqlar, o'yin vositalari, moddiy resurslar, mebel jihozlari, ko'rgazmali qurollar maktabgacha yoshdagi bolalarni pedagogik, psixologik, aqliy va jismoniy rivojlanishiga hamda ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda o'z ta'sirini o'tkazadi.

Tahlillar asosida yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, "Rivojlantiruvchi muhit" tushunchasiga biz quyidagicha o'z mualliflik ta'rifimizni berdik: "Rivojlantiruvchi muhit – bu maktabgacha yoshdagi bolani rivojlantirish jarayoni o'z-o'zidan yoki turli darajadagi tashkiliylik bilan amalga oshiriladigan, o'yin ta'lim strategiyasi jarayonida faollashtiriladigan ijtimoiy-madaniy makon".

Maktabgacha ta'lim tashkilotida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi kontekstida rivojlantiruvchi muhitni modellashtirishda quyidagi rivojlanish markazlari ko'zda tutilgan:

qurish, konstruksiyalash va matematika;
syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish;
til va nutq;
fan va tabiat;
san'at.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining rivojlantiruvchi muhiti quyidagilardan iborat:



1-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotining rivojlantiruvchi muhiti

Dissertatsiyaning “**Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlanish markazlaridagi faoliyatlarni loyihalash texnologiyasi**” deb nomlangan ikkinchi bobida maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlanish markazlar faoliyatini loyihalashtirishga rahbarlik qilish, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida rivojlanish markazlarida integratsiyalashgan ta’limiy faoliyatni takomillashtirish hamda guruhlarda rivojlanish markazlarining taxminiy joylashuvi bo‘yicha metodik ta’minoti yoritilgan.⁴

Bugungi kunda bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotiga moslashtirilmaslik kerak, aksincha maktabgacha ta’lim tashkiloti har bir bola uchun uning qobiliyati, imkoniyati, ruhiy va jismoniy holatlarini e’tiborga olgan holda zarur sharoitlarni yaratishga intilishi kerak. Har bir bola shaxsining betakrorligi va noyobligini hisobga olgan holda uning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlash pedagoglarga ta’lim-tarbiya jarayonida individual yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimining mazmunini yangilash ta’lim-tarbiya jarayonining individuallasuvi, pedagogning bolalar bilan shaxsga yo‘naltirilgan muloqotini ta’minlashni nazarda tutadi.

Bunday sharoitda bola mustaqil ravishda uning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini, tasavvurlarini, muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradigan, uning shaxsiyatini shakllantiradigan faoliyatga mustaqil ravishda intilishi kerak. Rivojlantiruvchi muhit maktabgacha yoshdagi bolalarning har bir yosh bosqichining xususiyatlariga mos ravishda loyihalashtirilishi o‘quv maydoni, materiallar, jihozlar va inventarlarni maksimal darajada amalga oshirish, ularning sog‘lig‘ini himoya qilishni mustahkamlash, rivojlanishdagi kamchiliklarni tuzatishni ta’minlaydi.

1-jadval.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni loyihalashning variativ yondashuv

No	Jarayondagi faollik	Variativ yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari
1.	Binolarni zonalashtirish	Har bir maktabgacha ta’lim guruhida turli xil faoliyat turlarini tashkil qilish uchun bir nechta zonalar mavjud: chizma zonasi, o‘yin zonasi, qurilish zonasi, yashash burchagi va boshqalar. Har bir zona qat’iy bir turdagi faoliyatni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Chizma maydonida bolalar rasm chizish va haykaltaroshlik qilishlari mumkin, o‘yin maydonida ular rolli o‘yinlar o‘ynashlari, qurilish maydonida ular qurilish majmualaridan ijob qilishlari va hokazo.
2.	Barqaror muhit	Guruh xonasining rivojlantiruvchi muhiti yangi o‘quv yili uchun tayyorlangan va keyingi yilga qadar o‘zgarmaydi, shuning uchun bolalar tezda unga qiziqishni yo‘qotadilar. Bunday modelning barqarorligi, bir tomondan, atrof-muhitdagi hamma narsa tanish ekanligiga ishonch hosil qiladi, biroq boshqa tomondan, bu maktabgacha yoshdagi bolalarda qiziqish va ehtiyojning qondirilmasligiga sabab bo‘ladi.
3.	Guruh binolarining bir xilligi	Maktabgacha ta’lim tashkilotining barcha guruhlari bir-biriga o‘xshash, xususan, moddiy-texnik jihozlar ham, o‘quv jihozlarida ham alohida farqlarga ega emas. Bu jarayon bolalarning individual

⁴ “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturidagi 10-ilova// “Guruhlardagi rivojlanish markazlari va rivojlantiruvchi muhit uchun materiallarning namunaviy ro‘yxati

		xususiyatlari va yoshi, balki rivojlanish sohalarini shakllantirilishiga ham hissa qo‘shmaydi.
4.	Muhitning passivligi	Predmetli-fazoviy rivojlantiruvchi muhit bolalar faoliyatining namoyon bo‘lishi uchun rag‘batlantiruvchi omil emas va u har bir bolaga “muhit – uchinchi pedagog” degan aniq yo‘nalishda qurilmagan.

Rivojlantiruvchi muhitni yaratishda asosiy talab – bolaga o‘z atrofidagi dunyo haqida mustaqil ravishda bilimga ega bo‘lishi, iste’dod va qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkin bo‘lgan faoliyatni erkin tanlash imkoniyatini berishdir. Pedagogning vazifasi esa bu jarayonni kuzatish, nazorat qilish va bolani zararli ta’sirlardan himoya qilishdir.

2-jadval.

Predmetli rivojlantiruvchi muhit komponentlari

№	Komponentlar	Komponentlar mazmuni
1.	Ijtimoiy komponent	– barcha subyektlarning o‘zaro tushunishi va munosabatlardan qoniqishi; – ijobiy kayfiyat; – rahbarlarning vakolatlari; – ta’lim jarayonini boshqarishda barcha subyektlarning ishtiroki darajasi; – uyg‘unlik; – munosabatlar samaradorligi.
2.	Rivojlantiruvchi komponent	– atrof-muhit bolalar faoliyatining barcha turlarini optimallashtirish uchun zarur bo‘lgan turli xil elementlardan iborat bo‘lgan juda xilma-xil va murakkab bo‘lishi kerak; – atrof-muhit yetarli darajada izchil bo‘lishi kerak, bu bolaga faoliyatning bir turidan boshqasiga o‘tishiga, ularni o‘zaro bog‘liq hayotiy lahzalar sifatida amalga oshirishga imkon beradi; – atrof-muhit yetarlicha moslashuvchan va bola kattalar tomonidan nazorat qilinadigan bo‘lishi kerak.
3.	Psixodidaktik komponent	– bolaning individual xususiyatiga tayanish; – yosh xususiyati va imkoniyatlarini e’tiborga olish; – o‘quv materiallarini davlat talablari asosida tanlash.

Yuqorida ta’kidlangan asosiy komponentlar rivojlantiruvchi muhit uchun o‘zgaruvchan dizayn loyihalarini yaratish uchun asos bo‘ladi. Har bir aniq loyiha, maktabgacha ta’lim tashkilotlari imkoniyatlariga qarab, barcha asosiy komponentlarni yoki ularning bir qismini o‘z ichiga olishi mumkin.

Loyihalash – bu ma’lum funksional, texnik, iqtisodiy, ekologik va iste’molchi sifatlarga ega bo‘lgan real obyektlar va effektlarni yaratishga qaratilgan universal, intellektual va ijtimoiy-madaniy jihatdan mustaqil faoliyat turi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, pedagoglarga guruhning rivojlantiruvchi muhitini tashkil etishga to‘sqinlik qiladigan asosiy qiyinchilik bu maktabgacha ta’lim tashkilotining muhitni shakllantirish estetikasini noto‘g‘ri tushunishdir, ya’ni kattalarning ichki makonni chiroyli narsalar, yorqin rasmlar va o‘yinchoqlar bilan to‘ldirish istagida, ko‘rgazmalar va burchaklar yaratishda ifodalanadi. Ushbu muammoni hal qilish pedagogika va dizaynning integratsiyasi bo‘lishi mumkin, bunda guruhning rivojlantiruvchi makonini loyihalash va to‘ldirishga badiiy va

estetik yondashuv, makonning mazmuni pedagogik rivojlantirish bilan parallel ravishda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari barcha yosh guruhlarida tashkil etilgan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o'z bilimini mustaqil ravishda to'ldirib borish, bo'layotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o'rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir. Bolalarga yo'naltirilgan guruhda puxta o'ylangan va xavfsiz tashkil etilgan rivojlanish muhiti eng muhim rol o'ynaydi, bu pedagoglarga davlat o'quv dasturining maqsad va vazifalarini amalga oshirish va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash imkonini beradi.

Rivojlanish markazlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash har bir bolaning individual xususiyatlariga mos keladigan usul va vositalarini aniqlaydi (3-jadval).


3-jadval.

Rivojlanish markazlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash

№	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari	Rivojlanish markazlari	Rivojlanish markazlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash
1.	Tadqiqot texnologiyasi	“Fan va tabiat”, “Qurish, konstruksiyalash va matematika”	Markazda mustaqil izlanib ko'rish, tajriba orqali xulosa chiqarishga o'rgatiladi. Bunda bolalarga tayyor bilim berilmaydi. Muammolarni izlash, kashfiyot orqali o'rganish, tajriba o'tkazishga sharoit yaratiladi.
2.	Kommunikativ texnologiyasi	“San'at” va boshqa markazlar	Bola o'z fikrini bayon etish, bahslashish, munozara yuritish, tasavvurlarini erkin nutq vositasida ifodalashga o'rgatiladi.
3.	O'yin texnologiyasi	“Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish”	Bilim, malaka, ko'nikmaga ega bo'lish uchun sharoit yaratiladi. Ta'limiy o'yinlar, voqeaband o'yinlar tashkil etiladi.
4.	Refleksiya texnologiyasi	“Til va nutq”	Bolalarga savollar berilib, ularni fikr yuritishga, tahlil qilishga o'rgatiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari barcha yosh guruhlarida tashkil etilgan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o'z bilimini mustaqil ravishda to'ldirib borish, bo'layotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o'rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir.

Bolaning rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan markazlar faoliyati nafaqat bolani mustaqil hayotga tayyorlaydi balki bugungi kunni samarali o'tishi, o'sish va rivojlanish jarayoni tabiiy holda kechishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadi. Yuqorida bayon yetilgan nazariy materiallar asosida biz maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlar faoliyatini loyihalashning metodik ta'minotini takomillashtirishning metodik modelini yaratdik (2-rasm).



2-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlari faoliyatini loyihalashning metodik ta'minotini takomillashtirish modeli

Dissertatsiyaning “**Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uning natijalari**” deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, o‘tkazish hamda natijalari bayon qilingan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarini loyihalash va metodik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari 2021–2023- yillar davomida amalga oshirilgan bo‘lib, bir necha bosqichdan iborat.

Tajriba-eksperimental ishning maqsadi aniqlandi: farazda ilgari surilgan pedagogik sharoitlarni tekshirish va asoslash. Kutilayotgan natija – rivojlanish markazlarini loyihalash va metodik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha bilimlarini oshirishdir.

4-jadval.

Tajribada ishtirok etgan tarbiyachi-pedagoglar soni

MTT	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Samarqand viloyati	60	55
Surxondaryo viloyati	108	100
Namangan viloyati	100	94
Sirdaryo viloyati	60	55
Jami	328	304

Birinchi bosqich – tashkil etish, farazni amalga oshirish, samaradorlikni eksperimental ravishda isbotlash kerak bo‘lgan bir qator ahamiyatli holatlarni, muhim jihatlarni qamrab oldi. Hozirgi vaqtda tadqiqot olib borishda dastlab ishchi faraz ishlab chiqiladi, bu tadqiqot jarayonining samarali rivojlanishi uchun zaruriy shartdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati kattadir. Rivojlantiruvchi muhit bolalar hayotida muhim o‘rin tutib, yoshlikdan bolalarning kasbga bo‘lgan qiziqishlarini orttirib boradi. Bolaning muntazam tarzda foydali va qiziqarli ish bilan band bo‘lishi bu pedagogik yutuq hisoblanadi.

Ushbu maqsadga muvofiq biz tajriba-eksperimental ishning vazifalarini aniqladik.

Aniqlovchi tajriba: rivojlanish markazlari faoliyatini loyihalash va metodik ta’minotini takomillashtirish darajasi tashxisini ishlab chiqish; rivojlanish markazlarini loyihalash va metodik ta’minotini takomillashtirish hozirgi shakllangan darajasini aniqlash.

Shakllantiruvchi eksperiment: ishlab chiqilgan modelni uning samaradorligini aniqlash uchun sinab ko‘rish.

Nazorat eksperimenti: shakllantiruvchi tajriba materiallari asosida rivojlanish markazlarini loyihalash va metodik ta’minotini takomillashtirish darajasini aniqlash.

Ikkinchi bosqich – amalga oshirish, dastlab farazda aytilgan va eksperimentning tayyorlangan materiallariga ko‘chirilgan g‘oyalarni amalga oshirishni ta’minlaydi. Bu yerda asosiy narsa – pedagogik eksperimentning sofligini ta’minlash, olingan ma’lumotlarning yetarlicha ishonchli bo‘lishini ta’minlash.

Uchinchi bosqich – aniqlash, bu natijalarning miqdoriy va sifat xususiyatlarini aniqlash, ularga kirish imkoniyatiga va ishonchlilikka ega bo‘lgan

qiymatlarni olish va belgilangan qonuniyatning mohiyatini ochiq namoyon etuvchi ma'lumotlarni olish uchun tegishli ishlov berishga qaratilgan barcha ishlar majmuini ifodalaydi.

To'rtinchi bosqich – talqin qilish, to'plangan faktlar turli asoslarga ko'ra tasniflanadi, statistik qonuniyatlar belgilanadi, rivojlanish tendensiyalari, barqarorlik zonalari, eksperimental tadqiqot obyektida ma'lum fazilatlar shakllanishidagi o'zgarish vaqtlari aniqlanadi. Induktiv va deduktiv usullarni qo'llash natijasida haqiqiy material umumlashtiriladi, uning ilmiy ahamiyati aniqlanadi.

Birinchi bosqich analitik tahlil, tashkiliy bosqich va muammoning nazariy aspektlarini har tomonlama o'rganishga bag'ishlandi. Mazkur bosqichda muammoning zamonaviy dolzarbligi, o'rganilishi tarixi, muammoga mavjud ilmiy yondashuvlar va qarashlar tahlili, pedagogik, psixologik, huquqiy, falsafiy, sotsiologik, tarixiy adabiyotlar ijodiy o'rganildi. Mazkur tashkiliy tayyorgarlik bosqichida tajriba-sinov ishlarini olib borish va uni o'tkazish tamoyillari, vaqti, bazasi, ishtirokchi obyektlari, tomonlar majburiyatlari va ishtirok etish darajasi, usullari ishlab chiqildi va belgilandi. Tajriba-sinov uchun maxsus maydonlar hozirlandi, tajriba va nazorat guruhlari tanlandi va ularga tadqiqot ahamiyati keng tushuntirildi.

